

## O‘ZBEK TILIDA DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING SHEVAVIY XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10397419>

**XUDOYNAZAROVA O‘g‘lonoy Allamurodovna**

*Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrası  
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.*

### ANNOTATSIYA

*Bir-biriga qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi sheva va dialektlar bir-biridan farq qilishi barchamizga ma‘lum. Diniy barqaror birliklarning shevaviy xususiyatlarini o‘rganish esa ikki til o‘rtasidagi umumiy va xususiy jihatlarni yanada kengroq aniqlashga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *din, barqaror birliklar, sheva, dialekt, lahja,*

### ABSTRACT

*It is well known that dialects and dialects differ between related and non-related languages. Studying the dialectal features of stable religious units serves to more broadly define the common and specific aspects between the two languages.*

**Key words:** *religion, stable units, dialect.*

### KIRISH

“Sheva” atamasi forsha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin, ravish kabi ma‘nolarni ifodalab, biror bir tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismidir. “Lahja” arabcha so‘z bo‘lib ifoda, so‘z, sheva, ovoz kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Dialekt-yunoncha sheva, so‘zlashish ma‘nolarini; lahja-arabcha ravish, tarz, yo‘sin, sheva ma‘nolarini bildiradi. Shu xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisidir. Masalan: o‘g‘uz lahjasi qipchoq lahjasi, qarluq lahjasi kabi.<sup>1</sup>

### MUHOKAMA NATIJALAR

Axborot manbalarida sheva, lahja, dialekt termini o‘rnida idioma terminini ham qo‘llashadi. Idioma-o‘zga qarindosh tillardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadigan mustaqil tildir. Ingliz tilshunoslari Chambers J.K va Piter Trudgillar *idioma* termini o‘rnida *variety-farqlilik* terminini qo‘llaydi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Yoqub Saidov. O‘zbek dialektologiyasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. Buxoro.Durdona nashriyoti. 2021.

<sup>2</sup> Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. Toshkent. 2016. B.147

O'zbek lingvistikasida Oллоh, farishta, shayton leksemasi bilan bog'liq juda ko'p diniy barqaror birliklar mavjud bo'lib, ular turli lahjalarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan: Oллоh chorladi, Oллоhga omonatini topshirdi birikmalarining shevada quyidagi ko'rinishlari mavjud: *tamam bo'ldi, uzildi, jan berdi, qaza qildi, dunyadan yeti, napayt bo'ldi. Napayt bo'ldi* birligi asosan bolalarga nisbatan qo'llaniladi.<sup>3</sup> *Худо урган бадйага йеддъ палпъснъ гьрънтъ* birligi Xiva shevasiga mansub birlikdir.<sup>4</sup>

*Oллоh qo'llasin barqaror* birikmasini ayrim holatlarda *Oлло qo'llasin* shaklida ham talaffuz etishadi. Bu holatda birinchi so'zdagi undosh tovushning tushishi-apokopa kuzatiladi. Bundan tashqari islomiy so'z hisoblanmish Alloh yarlaqasin ma'nosini bildiruvchi *Barakalloh* birligi so'zlashuv nutqida *barakalla* sifatida ham qo'llaniladi va bu so'z aslida arabcha *Barakallah feek* so'zidan kelib chiqqan.

*Bibi mushkulkushod*-forscha mushkulni oson qiladigan ayol. Bibi mushkulkushod So'fiylik tariqatiga asos solgan Bahouddin Naqshbandiyning xolasi sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda ushbu so'zning *bo'mushkul* shakli mavjud.<sup>5</sup> Diniy barqaror birikmalar lahjalarda shakllanish jarayonida bir qator fonetik hodisalar ham kuzatiladi. Jumladan: assimilatsiya hodisasi, odatda unli va undoshlar tizimida baravar qayd etiladi, ammo ular tilning konsonantizm hodisasi tizimida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jarayon progressiv va regressive assmilatsiyaga bo'linadi. Regressiv assimilatsiya hodisasiga o'zbek tilidagi *Oллоhu akbar* termining *Oblohu akbar* shaklida talaffuz qilinishini misol qilishimiz mumkin.

Barchamizga ma'lumki, Samarqand va Buxoro shevasidan boshqa barcha shevalarda **f** harfi **p** tarzida talaffuz etiladi. Shu tufayli *Xudo shifo bersin* birligi ba'zida *Xudo shipo bersin* tarzida ham qo'llaniladi.

Ayrim diniy barqaror birliklarning shevaviy xususiyatlarda ikki xil fonetik hodisa kuzatiladi. Masalan: qarg'ash ma'nosida qo'llaniluvchi *Oллоhning qahriga duchor* bo'lgan birligi qipchoq lahjasida - *Olloning qariga duvchar bo'lgan* tarzida talaffuz etiladi. Ya'ni bu yerda tovush tushishi va tovush orttirilish hodisasi kuzatilmoqda.

Oллоh, Xudo, shayton, jin, farishta leksemali diniy barqaror birikmalarning shevaviy xususiyatlari yana quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Sheytanga dars beredi-shaytonga dars beradi (hiylakor odam).

Jigittin davi kepti, xuda bersin!- Yigitning ishi o'ngidan kelibdi ma'nosida.

*Jin-jibir*-arabcha jinlar ma'nosida. Qaranada jar jag'alap jirme, jin-jibirlar chalip ketmasin!

<sup>3</sup> Nazar Rajabov. O'zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 1996

<sup>4</sup> Ф.А.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Луғат. ЎзФА нашриёти.

<sup>5</sup> Islom ensiklopediyasi

*Juvarmek-forsiycha.* Yigit yoshida, qirg'illagan yoshida o'lmoq. Urushi qurisin, ko'p jigritlar juvarmek bo'ldi. Juvarmek vo'lgirlar jaylavda juvanamdi vo'g'irlapti.

*Ilahide, ilahikide-arabcha+turkey* so'z. Yaratgandan qilgan gunohlari uchun birovga yomonlik tilash. Ilahide, sho' vo'g'irinin uyi kuyip, vo'g'irlagan qo'yi vo'zig'a qirq xudayi bo'sin!

*Nike qiyuv-arabcha+turkcha* so'z. Nikoh xutbasini o'qish, nikohni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish. Ilgeri yaxshi edi, bir axshamda ham nike qiyg'ichedi, ham qadelerini vo'tkizgichedi, kegin to'ychi tamasha ko'rgichedi, bilmeymen bu tamildi kim chig'ardi, bir xil jerda to'ydan bir hafta aldin, bir xil jerda uch kun aldin nike qiyip qo'yadilar.

*Nikesiga saluv-arabcha+turkcha* so'z. Qizni yoki ayolni erkakning nikohiga solish. Kuyav qariyem bo'sa bay dep, bayqushti majburlep sho'nin nikesiga soldilar.

*Uyi sinuv-turkiy* so'z. Erkak kishining ayolining o'lishi. Bayqushtin uyi sinip, jash balalariman qaldi.

*Allag'a amanat-arabcha* ibora. Ollohga omonat tarzida qo'llaniladi. Jigitlar Rassiyada, hamma Allag'a amanat.

Diniy barqaror birliklar so'zlashuv nutqida turli dialekt va shevalarda turlicha namoyon bo'ladi. Jumladan: Xuda raxmet qisin-Xudo raxmat qilsin<sup>6</sup> (Xuda rahmet qisin katapajan, bergan bir qancha shalilaringizdi axlap guruch qilib jep, bug'dayga jettik, qo'limiz kaltaligidan sizlerdi irzayam qilalmadiq).

*Murut avlash-arab, turk* tillaridagi so'zlar asosida hosil bo'lgan birikma. Parning o'z muridlaridan nazr yig'ib, duo berish odati. Eshan baba uzaq jo'ldan murut avlap kepti, ag'ayinnardi chaqirinar, kep pirdin duvasini ap ketsinner!

*Perishtesi bosim bo'luv-forscha, turkcha* so'zlar asosida hosil bo'lgan birlik. Bilimi oshib, yuzi nurga to'lmoq. Bekar jurganinnen mo'llanin aldig'a borib vo'qisan, ham namazlig'indi uyrenesen, ham juzinde perishten basim bo'ladi.

*To'rt tamani qibla-turk* va arab so'zlari asosida hosil bo'lgan birikma. Bugunnen bashlap ishten bo'shadin, to'rt tamanin qibla, ustingda Xuda, qayaqa ketseng keteber!

*Xuda birdi-fors* va turk so'zlari asosida hosil bo'lgan birlik. Ollohning yagonaligini o'rta qo'yib ichiladigan qasam. Xuda birdi sizdi jamanlag'an davrede men jo'g'edim!

*Xudaning kuni-forscha-turkcha* so'zlar asosidagi ibora. Har doim. Nime bala, xudaning kuni qantqa talaship ukelerindi jilatasan!

<sup>6</sup> O'.A.Xudoynazarova. Ingliz va o'zbek tillarida mifonim komponentli frazeologizmlar. Monografiya. Globe Edit nashriyoti. 2023. 149 b.

*Shaytang'a hay beruv*-arabcha-turkcha so'zlar asosida shakllangan birlik. Shashtidan tushmoq. Shu gabinge avzuma bir gap kebedi, shaytang'a hay berdim-da!

## XULOSA

Diniy barqaror birikmalar turli lahja va shevalarda turlicha namoyon bo'ladi va ular o'ziga xos xususiyatlarga ega. Diniy barqaror birliklar shevalarda aks etganda bir qator fonetik va grammatik o'zgarishlarga duch keladi. Bu esa ilmiy izlanuvchidan har tomonlama chuqur bilim sohibi bo'lishni talab etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Yoqub Saidov. O'zbek dialektologiyasi. O'quv-metodik qo'llanma. Buxoro. Durdoni nashriyoti. 2021.
2. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. Darslik. Toshkent. 2016. B.147
3. Nazar Rajabov. O'zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 1996
4. Ф.А.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Луғат. ЎзФА нашриёти.
5. Islom ensiklopediyasi
6. O'.A.Xudoynazarova. Ingliz va o'zbek tillarida mifonim komponentli frazeologizmlar. Monografiya. Globe Edit nashriyoti. 2023. 149 b.